



O'ZBEK TILINING BOYISH MANBALARI IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA .

Universiteti o'qituvchisi

Uralova Ma'rifat Shonazarovna

Uralovamarifat26@gmail.com

+998939311162

Fan hamisha rivojlanishda va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko'rilmagan darajada jadal rivojlanmoqda. Agarda hozirgi zamonga nazar soladigan bo'lsak, bizni o'rab turgan kurrayi zamin zamonaviy texnologiyalar qurshovida ekanligini guvohi bo'lamiz. Texnologiya tobora rivojlangani sari nutqimizda yangi so'zlar ham ko'payib bormoqda. Neologizmlarning yaralishi va tarqalishi asosan fan-texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq. Ayni damda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so'zlarning biridan boshqasiga o'tishi jadallashmoqda. Hozirgi kunda nafaqat, fan-texnika, balki ilmiy, rasmiy, publitsistik, so'zlashuv uslublarida va barcha sohalarda, shuningdek iqtisodiy sohada ham bir qancha Neologizmlarni uchratmoqdamiz. Bu jarayon ha bevosita o'zbek tiliga ta'sir qilmoqda va o'zbek tili leksikasi o'zlashma so'zlar-neologizmlar hisobiga boyishiga xizmat qilmoqda. S.I. Ojegovning e'tirof etishicha, leksika tilning boshqa sathlariga qaraganda murakkab va ko'p qirralidir. Uning vazifasi, bir tomondan, jamiyat nafas olayotgan borliqni barcha murakkabliklari bilan in'ikos etish bo'lsa, ikkinchi tomondan, leksik, semantik, uslubiy-sinonimik so'z yasash va shuning kabi bir qator hodisalarning murakkab lisoniy munosabatlarini ifoda etishdan iboratdir. Bir tildan boshqa tilga so'z o'zlashishi tillarning aralashuvi sifatida



yuqori baholanadi. Mashhur tilshunos L.V.Shcherba bunday jarayonni tilshunoslikning muhim muammolari sirasiga kiritadi.

Til insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lib, u doimiy taraqqiyot va o'zgarish jarayonida bo'ladi. Har qanday tilning lug'at tarkibi turli davrlarda yangilanib, boyib boradi. Bu jarayonda neologizmlar – ya'ni yangi so'z va atamalar muhim o'rin tutadi. Neologizmlar, asosan, ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida paydo bo'ladi va jamiyat ehtiyojlariga qarab tilga singib boradi. O'zbek tili ham jahonning ko'plab tillari kabi doimiy rivojlanishda bo'lib, uning lug'at tarkibi yildan yilga boyib bormoqda. Ayniqsa, XXI asrda globallashtirish jarayonining jadallashishi, xalqaro muloqotning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tilimizga ko'plab yangi termin va iboralar kirib kelmoqda. Kompyuter texnologiyalari, internet, marketing, moliya va ta'lim sohalaridagi global o'zgarishlar natijasida “onlayn”, “oflayn”, “startup”, “freelancer”, “brending” kabi so'zlar kundalik nutqimizga singib bormoqda. Shu bilan birga, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish maqsadida ba'zi neologizmlar o'zbek tiliga moslashtirilmoqda yoki milliy ekvivalentlari yaratilmoqda.

O'zbek tili lug'atining boyish manbalari– asosn, ikki manbaga asoslanadi:

ichki imkoniyatlar – so'z yasash va shevadan so'z olish: ishchi, limonzor, dugona...

b) tashqi imkoniyatlar – boshqa tildan so'z olish: ruchka, stol, stul, parta (rus); futbol, boks (ingliz); tomat, limon, marmelad (ispan); vergul, palto (fransuz); manti, lagmon, shiypon (xitoy); kitob, maktab, ma'no, davlat (arab); anor, barg, qog'oz, baxt (fors-tojik)...tilning lug'aviy birliklari – so'z, qo'shma so'z, ibora (frazologik birlik) – bulardan tilimizda doim tayyor material sifatida foydalanamiz.





O'zbek tili leksikasining boyish manbasi bo'lgan va uning turlari haqida gap boradi. Bir qancha tilshunosh olimlarimiz tomonidan leksikologiyani tadbiq etish borasida bir qancha vazifalar belgilangan bo'lib, keying vazifa o'zbek tilining sistemaviy lug'atini tuzish etib belgilandi. Maqolada o'rganish obyekti etib o'zbek tili leksikasidagi o'zlashma so'zlar-neologizmlar olindi. Materiallar, asosan, eski va yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan hamda bir qancha lug'atlardan to'plandi. Ishga nazariy manba sifatida taqdim qilindi. Tilshunosligimizda bajarilgan monografiya va ilmiy maqolalardan foydalanildi.

Bu sohani yanada chuqurroq tahlil qilish uchun yangi o'rganish usullari taklif etiladi. Bular orasida korpus lingvistikasi va sun'iy intellekt asosidagi tahlil usullari muhim ahamiyatga ega. Korpus lingvistikasi orqali neologizmlarning matn korpuslarida qay darajada qo'llanilayotgani, ularning tarqalish sur'ati va semantik o'zgarishlarini tahlil qilish mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida esa yangi paydo bo'layotgan so'zlarning tarqalish dinamikasi avtomatlashtirilgan holda kuzatilishi va ularning til tizimidagi o'rnini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, sotsiolingvistik tadqiqotlar yordamida turli yosh toifalarida neologizmlarning qabul qilinishini o'rganish mumkin. Neologizmlarning tilga to'g'ri integratsiya qilinishini ta'minlash uchun bir nechta takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, rasmiy neologizmlar lug'atini yaratish zarur. Bu lug'atda yangi so'zlarning tavsiya etilgan o'zbekcha ekvivalentlari berilishi, ularning qo'llanilishiga oid izohlar keltirilishi kerak. Ikkinchidan, yangi atamalarni ta'lim tizimiga joriy etish muhim. O'quv dasturlarida neologizmlarning to'g'ri qo'llanilishi bo'yicha maxsus darsliklar va o'quv materiallarini ishlab chiqish lozim. Uchinchidan, tilshunos olimlar tomonidan yangi so'zlarning fonetik va grammatik jihatdan moslashuvini nazorat qilish, ularni normativlashtirish tizimini yo'lga qo'yish lozim. To'rtinchidan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda neologizmlarning noto'g'ri





qo'llanilishining oldini olish uchun maxsus qo'llanmalar ishlab chiqilishi, bloggerlar va jurnalistlar uchun tavsiyalar berilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.:2000
2. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobitdinov S. Hozirgi o'zbek tili faol so'zla.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. T.: "Universitet". 2006
4. Suvonova R. So'z o'zlashtirish va metonimiya. "O'zbek tili va adabiyoti " jurnali. Toshkent. 2006/6
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2010
6. Hozirgi o'zbek tili: Baxtiyor Mengliyev. "Excellent Publication" – Toshkent. 2020 – 182
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili: H. jamolxonov. Toshkent "Talqin". 2005. – 204-210-sahifalar
7. O'zbek tilining izohli lug'ati . birinchi jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -680 b

